Как следует из результатов эксперимента, увеличение температуры приводит к уменьшению светового потока. У СИД 1, СИД 2 и СИД 3 световой поток уменьшился от 100 до 85 %, у СИД 4 и СИД 5 – до 87 %, у СИД 6 и СИД 7 – до 88 %, а у СИД 8, СИД 9 и СИД 10 – до 89%. Также, данный эксперимент показывает что, у СИД большой мощности уменьшение светового потока меньше, чем у СИД малой мощности. Эти и аналогичные исследования отражают термочувствительность СИД. Так как большинство светильников с СИД – приборы закрытого типа, и тепло, которое «заперто» внутри светильника, существенно влияет на световой поток СИД.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Емельянов А.М., Соболев Н.А., Шек Е.И. Кремниевые светодиоды, излучающие в области зона-зонных переходов: влияние температуры и величины тока // Физика твердого тела. 2004. Т. 46. Вып. 1. С. 44-48.
2. O.O. Ochilov, O.O. Ochilova. Diffraction on LEDs // NeuroQuantology, 2022, Volume 20, Issue 18, p. 133-137, doi: 10.14704/nq.2022.20.18.NQ880016.
3. Сергеев В.А., Ходаков А.М. Расчет и анализ распределений плотности тока и температуры по площади структуры InGaN/GaN мощных светодиодов // Физика и техника полупроводников. 2010. Т. 44. Вып. 2. С. 230-234.

VII SHO‘BA: ZAMONAVIY TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
СЕКЦИЯ №7: ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ
ОБРАЗОВАНИИ

SECTION No.7: DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION

KREDIT - MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MAXSUS
KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA MUSTAQIL TA‘LIM
IMKONIYATLARI VA XUSUSIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH

Avezov Alijon Xayrulloevich

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston.

a.x.avezov@buxdu.uz

Ushbu maqolada talabalar kredit-modul tizimida mustaqil ta‘limdan samarali foydalanishi va oliy ta‘lim muassasi professor o‘qituvchilari kredit modul tizimida innovatsion texnologiyalar orqali mustaqil ta‘limni tashkil etish bilan ta‘lim sifatini yaxshilashi, shu bilan birga ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va laboratoriya darslarida ham barcha zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda talabalarda o‘qitilayotgan kurslar bo‘yicha chuqur bilim berish va bu bilimlardan amaliyotda foydalana olish ko‘nikma va malakasini shakllantirish, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil ta‘limni innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida qo‘llash orqali talabalarning aniq va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan aniq va tabiiy fanlardan malaka talabalarini integratsiyalash asosida texnik ijodkorlik qobiliyatning tizimli komponentlari (motivatsion-kognitiv, texnologik va kreativ) tizimi keltirilgan [1].

Talabalarning mustaqil ishlari quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin: talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari; axborot izlash – o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o‘rganish; Forum – fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta‘lim platformalarida fikr almashish;

Test yechish – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash; Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish masala yechish – amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish; referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi; kollokvium – o'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish; esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; taqdimot – berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish; keys - stadi ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash; ish o'yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko'nikmalar orttirish; kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari; fan to'garaklarida ishtirok etish – talabanning fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi; tanlovlarda ishtirok etish – talabanning o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (-Yosh ixtirochil, talabalar startap loyihalari va h.k.); ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyoslarda o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish; Ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to'plamlarida tezislar va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha maqolalar chop qilish; Elektron shakldagi o'qituvchi raxbarligida talabalarning mustaqil ishlari: Review – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish. Interview – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyushtirish va uni masofaviy ta'lim platformasiga yuklash [2-3].

Talabalarning mustaqil ishlari innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi raxbarligida talabalarning mustaqil ishlarining

auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko'zda tutadi.

Mustaqil ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak: o'quv topshirig'ining motivatsiyasi; kognitiv vazifalarni aniq bayon qilish; ishni bajarish algoritmi, usuli, talabani uni bajarish usullari to'g'risida bilimi; o'qituvchi tomonidan hisobot shakllarini, ish hajmini, uni topshirish vaqtini aniq belgilashi; konsalting yordam turlarini aniqlash (sozlash, tematik, muammoli konsultatsiyalar); baholash, hisobot berish va boshqalar mezonlari; nazorat turlari va shakllari (seminar, test sinovlari, seminar va boshqalar).

Mustaqil ish talaba faoliyatidagi takrorlash va ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunga qarab mustaqil ishning uchta darajasi ajratiladi.

Reproduktiv darajaga o'qish, o'quv adabiyotlarini yozib olish, ma'ruzalar tinglash, audio va video yozuvlarni tinglash, yodlash, takrorlash, yodlash, Internet manbalari va o'quv materiallarini takrorlash kiradi.

Kognitiv darajaga xabarlar, ma'ruzalar tayyorlash, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, intizomiy masalalar bo'yicha adabiyotlarni tanlash, referatlar, referatlar, testlar yozish, ishbilarmonlik o'yinlariga tayyorgarlik va boshqalar kiradi.

Ijodiy daraja - mustaqil ish darajasi - ilmiy maqolalar, tezislar yozish, tadqiqot ishlarida qatnashish, talabalar ilmiy konferensiyasi, olimpiada va boshqalarda qatnashishni o'z ichiga oladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Q.Qahhorov, Sh.F.To'rayev. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'limda to'g'ri yo'lga qo'yilgan mustaqil ta'limning muhim hissasi// Pedagogik mahorat jurnali 2022 aprel, 2-son.
2. Usmonov B.Sh,Xabibullayev R.A.Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.O'quv qo'llanma Toshkent, 2020 yil [4 34-37 betlar.

3. Avezov A.X. Ta'limning turli bosqichlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish. // "Science and Education" scientific journal, 2:11 (2021), c. 789-797.

TALABALARNING ELEKTRON VOSITASIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI O'LCHASH VA BAHOLASH

Arziqulov Abdixoliq Ulashevich¹, Janiqulov Qamariddin Kenjayevich²

¹O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti dotsenti. a.arziqulov@mail.ru

²SamDU mustaqil tadqiqotchisi. qamariddinjaniqulov@mail.ru

Respublikamizda so'ngi yillarda o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Shularni inobatga olib axborot texnologiyalari vositasida matematikadan talabalarning bilimini aniqlash uchun "O'zlashtirish darajasini aniqlovchi test" nomli dastur yaratildi.

Bu dastur **JavaScript** dasturlash tilining ochiq manbali **REACT** frameworkida hamda **PHP** dasturlash tili va **MySQL** ma'lumotlar bazasida ishlab chiqilgan. Foydalanuvchilar dasturdan web platforma orqali hamda Android tizimidagi mobil dastur orqali ham foydalanishlari mumkin. Foydalanuvchining



ma'lumotlari turli qurilmalarda sinxronizatsiya bo'lishini taminlash maqsadida


ma'lumotlar bulutli texnologiyalar yordamida serverda saqlanadi. Bu esa foydalanuvchiga ma'lumotlarini tiklashi va dasturni turli muhitda boshidan emas, kelgan joyidan davom etish imkoniyatini yaratadi. Bu dastur yuklangandan so'ng foydalanuvchi ismi, familiyasi, login, paroli orqali ro'yxatdan o'tiladi. Kirish oynasi paydo bo'ladi. Unda ham login va parol orqali dasturga kiriladi.

Ekkranda quyidagi to'rtta bo'lim, ikkita menyu va chiqish tugmasi bor (1-rasm): Testlar, nazariy ma'lumotlar, namunaviy misollarning yechilishi va multemediya ko'rinadi.

Brinchi bo'limda testlar 7 ta sinflashtirilgan kategoriyalarga ajratilgan. Shuningdek, dasturda testlar bazasi kategoriyasini kengaytirish va qisqartirish imkoniyati ham mavjud. Foydalanuvchi eng qiyi kategoriyadan boshlab har bir kartada 60 ta test mavjud bo'lib, random orqali 10 ta test tanlanadi va uni yechish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Agarda foydalanayotgan talaba kartadan oltmish foizdan yuqori natijaga erishsa keyingi bosqichga o'tadi. Agarda foydalanuvchi barcha bosqichlardan o'tib eng yuqori kartadan ham oltmish foizdan yuqori natija ko'rsatsa, uni rag'batlantirish uchun diplom beriladi.


Ikkinchi bo'limda mavzuga oid nazariy ma'lumotlar berilgan.

Uchinchi bo'limda namunaviy test yechimlari, misollarning yechilish metodlari ko'rsatilgan.



1-rasm
158

To‘rtinchi bo‘limda multimedialar tayyorlab joylashtirsa bo‘ladi. Tizimda administrator moduli ham mavjud bo‘lib u tizimdagi o‘quvchilarni nazorat qilishi, statistik tahlillarni kuzatish imkoniyati mavjud. Monitoring qilish mobaynida foydalanuvchilarning qaysi qismi qaysi kategoriyada, qaysi bosqich eng ko‘p yechilganligi, qaysi bosqichda urinishlar soni yuqori va past ekanligi, qaysi turdagi savolda ko‘p xato yechilganlarning sonini kuzatish mumkin. Bu oraqli foydalanuvchilarning qaysi turdagi savollarda oqsashliklarni aniqlash va tushunmovchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashish imkoniyati mavjud.



Bu dastur yordamida o‘quvchilar mustaqil shug‘ullanishlari ham mumkin. Dasturdan foydalanib nafaqat parametrlil tenglamalar balki istalgan mavzuga oid testlar tuzib, o‘quvchilarning bilimni baholash imkoniyatiga ega.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Boboyeva Muyassar Norboyevna, Xo'jayeva Marjona Mardon qizi

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

m.n.boboeva@buxdu.uz, marjona1@gmail.com

Hozirgi paytda an'anaviy ta'lim bo'yicha katta tajriba to'plangan va an'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda,

lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tafovudni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya o'z o'rnida qo'llansa qo'yilgan maqsadiga erishiladi. O'qituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab innovatsion texnologiyalarni qo'llab yuqori natijalarga erisha oladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslari orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari boshqa o'quv predmetlariga nisbatan kengroqdir. Sababi, biz matematika darsidan oddiygina bir masala yechimini topish orqali ham fanlararo integratsiyani amalga oshiramiz, ham o'quvchini kengroq nazariy bilimni amaliy hayotga bog'lab o'rganishlariga yordam beramiz va matematika darslarida o'quvchilar o'zi yashayotgan hayotdagi bo'layotgan o'zgarishlardan ham o'z o'rnida xabardor bo'ladilar. Misol sifatida, 3- sinf matematika darsligidagi bir masalani keltirib o'tmoqchimiz:

Masala. Anvarning akasi va singlisi bor. Uchalasining yoshini qo'shib hisoblaganda 17 yosh. 6 yildan keyin ularning yoshini hisoblaganda qancha bo'ladi?

Yuqoridagi birgina masalani yechimini izlash orqali o'quvchilarda birinchidan, tarbiya fani bilan integratsiya qilib aka-uka, opa-singillar orasidagi mehr-oqibat haqida o'quvchilarning fikrlarini kengaytirish mumkin.

Ikkinchidan, hayotga bog'lab masala yechimini topishda esa o'quvchilarga quyidagicha savol berish mumkin, sizning akangiz (ukangiz), opangiz(singlingiz) va sizning yoshingizni qo'shganimizda natija nechi bo'ladi? 6 yildan keyin qanday o'zgaradi bu oraliq?, 9 yildan keyinchi?, 10 yildan keyinchi?. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda

1. Nostandart masalalar

2. Mantiqiy masalalar

3. Muammoli vaziyatlarga keltiruvchi masala turlaridan kengroq foydalansak o'z maqsadimizga osonroq erishamiz.

Ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'zni beqiyosdir.

Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga bir yangilik kiritish uning bugungi kun shiori bo'lishi darkor.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatleri bilan ajralib turadi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбикий асослари. Ўқув қўлланма. Т.: 2006. – 163 б.
2. Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, М.Мирсолиева. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. Ўқув-услубий мажмуа.
3. Boboyeva M.N., Qutliyeva Z.O. Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. Journal of Global Research in Mathematical Archives. 11:6 (2019), p. 10-12.

JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA MAKTAB INFORMATIKA KURSINI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Botirov D. B. JDPU, dotsent

Eshonqulov T. UzMU Jizzax filiali, dotsent

Majidov J.M. JDPU, katta o'qituvchi

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan avlodni tarbiyalash nozik, nixoyatda katta diqqat-e'tiborni talab qiladigan ma'suliyatli jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo'r xavas va

sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va maxorat egasi bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi pedagogik xodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lgan o'qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar [4].

Avtomatlashtirilgan axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning global jarayoni inson rivoji va ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ammo, bu imkoniyatlardan axborot makoniga mo'ljal olish uchun zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallagan jamiyat a'zosigina to'laqonli foydalanish mumkin.

Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida turgan asosiy masalalardan biri - bu o'quvchilarning axborot madaniyati va dunyoqarash darajasini oshirish uchun ularga shart-sharoit yaratishdan iborat. Bu muammoni hal etishda maktab "Informatika va axborot texnologiyalari" kursining roli o'ta muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda maktab informatika kursining ustuvor muammolari va uning kelajak istiqbollarini tadqiq va tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Maktabda "Informatika va axborot texnologiyalari" ni o'qitishning muammolari va istiqbollari haqida fikr yuritishdan avval biz quyidagi asosiy muammolarni qarab chiqamiz. Bu muammoni o'quvchilar "Informatika va axborot texnologiyalari" ning o'quv predmeti, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida maktab informatika kursini o'qitishning dolzarb muammolari va istiqbollari sifatida ahamiyatini, sohaning aniq tavsifini, informatika va axborot texnologiyalarining maqsadini qay darajada anglashini aniqlashdan iborat. Bugungi kunda Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kutubxonalar, elektron

kitoblar va raqamli audio-video rasmlar, mobil telefonlar, cho'ntak kompyuterlar va boshqalar zamonaviy o'quvchi uchun shunday tasavvurni yaratadiki, ularning tasavvuri bo'yicha taxminan 20 yil avval biz ijtimoiy geografik va siyosiy to'siqlardan boshqa narsa mavjud bo'lmagan absolyut axborot vakkumida yashaganmiz. "Informatika va axborot texnologiyalari" - bu majburiy umumiy o'rta ta'lim predmeti. Shuning uchun ham uni o'rganishga umumiy o'rta ta'limning o'ziga xosligi va muammolari bilan shartlashilgan tizimli yondashuv zarur. Uni maktabda o'rganishdan asosiy qiyinchiliklaridan biri shundan iboratki, undan qaraladigan ko'pgina masalalar, bilimlarning boshqa predmetli sohaslariga, ya'ni fizika, matematika, astronomiya va boshqa sohalarga taalluqli. Shuning uchun ham informatikani o'rganish predmetlararo xarakterga ega.

O'quvchilar uchun informatikani o'rganishdagi asosiy muammolardan biri bu ularning o'yinli faoliyatining o'quv faoliyatiga birdan almashishidir. O'quv faoliyatini shakllantirish ko'p hollarda o'quvchilarning o'yinli ehtiyoji bilan ustma-ust tushmaydi va u o'quvchilar tomonidan juda og'ir qabul qilinadi.

Bu bosqichda o'yinli didaktik kompyuterli texnologiya imkoniyatlaridan foydalanib o'yinli faoliyatdan o'quv faoliyatiga suzib o'tishni tashkil etish zarur. Mantiqiy va tizimli fikrlash talab etiladigan ijodiy faoliyat ko'rinishi sifatida axborotli faoliyatga zamonaviy qarash "Informatika va axborot texnologiyalari" o'qituvchisini o'quvchilarda fantaziya va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Maktabda "Informatika va axborot texnologiyalari" darslarida o'quvchilarda olamni tizimli tasavvur qilish, turli tabiiy va ijtimoiy xodisalarning yaxlit axborotli aloqalarini tushinish shakllanadi, darajali axborotni tezkor qayta ishlash va shu asosda asoslangan yechimni qabul qilishga qobiliyatlilik bilan aniqlanadigan tizimli fikrlash rivojlanadi.

Maktab "Informatika va axborot texnologiyalari" kursining mazmuni informatikani fani rivojining zamonaviy darajasiga va jamiyat talablariga javob berish kerak. Kompyuter texnikasi va ularning dasturiy ta'minotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va yangilanishi esa o'z navbatida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab o'quvchilarga informatikani sifatli

o'rgatishga qobiliyatli, shuningdek o'quvchilarni zamonaviy informatikaning murakkab olamiga olib kira oladigan "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchisini tayyorlash va qayta tayyorlashga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. "Ilm-fan yutuqlari-taraqqiyotning muhim omili".Toshkent, 2017.
3. Abdullayev Z.S., Shodmonova G., Mirzayev S.S., Shamsiddinov N.B. Informatika va axborot texnologiyalari. – T.: Noshir, 2012. – 400 b.
4. Ashurova D., Yuldasheva Z. Ta'lim tizimida innavatsion va axborot texnologiyularini qo'llash zamon ta'labi. Xalq ta'limi jurnali, 2006 yil 1 son. 15-20 bet.
5. Botirov D.B., Majidov J.M., Do'sbekov A.A. Umumiy o'rta ta'lim maktabda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning integrallashgan texnologiya metodikasi haqida. 2021-жыл "Жасларды қоллап-қуўатлаў ҳәм халықтың денсаўлығын бекемлеў жылы" ҳәм де "21-февраль Халықаралық ана тили күни" мүнәсибети менен "Үзликсиз билимлендириў системасында аралықтан оқытыўдың интеграциясы" атамасында өткерилетуғын Халықаралық илимий-теориялық конференция. –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 284 бет.

PASKAL UCHBURCHAGI VA UNI TURLI MASALALARNI YECHISHDA QO'LLASH HAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Do'stova Shahlo Baxtiyorovna., Rahmatova Shaxrinoz Rashidovna

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Bizga ma'lumki ko'phadlar va ular ustida amallar bajarishga doir mavzular matematika fanining eng asosiy tushunchalaridan biridir. Ko'phadlarning kichik sonlar bilan darajaga oshirish oson ish, ammo, o'sha ko'phadni katta sondagi

darajaga oshirish sal mushkul va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Paskal esa shu muammoni hal qilish maqsadida o'z izlanishlarini, tadqiqotlarini olib borgan buyuk shaxslardan biri hisoblanadi. U o'z ishlanishlari samarasida 1654-yilda "Paskal uchburchagi" nomli atamani fanga kiritadi. Paskal uchburchagidagi qatorlar istalgancha davom ettirilishi mumkin. Shunisi qiziqki, Paskal uchburchagi yordamida istalgan n ta elementdan n tadan gruppalashlar sonini faqat qo'shish amali yordamida hosil qilish mumkin. Bu amal formulaga asoslanadi. Paskal uchburchagining ko'rinishi (1-shakl):

1									
2	1								
3	2	1							
4	3	3	1						
5	4	6	4	1					
6	5	10	10	5	1				
7	6	15	20	15	6	1			
8	7	21	35	35	21	7	1		
9	8	28	56	70	56	28	8	1	
10	9	36	84	126	126	84	36	9	1

Uning Paskal nomi bilan atalishiga qaramasdan, bunday sonlar jadvali juda qadimdan dunyoning turli mintaqalarida, jumladan, sharq mamlakatlarida ham ma'lum bo'lgan. Masalan, Erondagi Tus shahrida (hozirgi Mashhad) yashab ijod qilgan Nosir at-Tusiy XIII asrda bu jadvaldan

foydalanib, berilgan ikkita son yig'indisining natural darajasini hisoblash usulini o'zining ilmiy ishlarida keltirgan bo'lsa, g'arbda Al-Kashi nomi bilan mashhur Samarqandlik olim Ali Qushchi butun sonning istalgan natural ko'rsatkichli arifmetik ildizi qiymatini taqribiy hisoblashda bu jadvaldan foydalana bilganligi haqida ma'lumotlar bor. Keyinchalik G'arbiy Yevropada bu sonlar uchburchagi haqida M. Shtifel3 arifmetika bo'yicha qo'llanmalarida yozgan va u ham butun sonidan istalgan natural ko'rsatkichli arifmetik ildizning taqribiy qiymatini hisoblashda bu uchburchakdan foydalana bilgan. 1556 yilda bu sonlar jadvali bilan N. Tartalya, keyinroq logarifmik lineyka ijodkori U. Otrred (1631 yil) ham shug'ullanganlar. 1654 yilga kelib B. Paskal o'zining "Arifmetik uchburchak haqidagi traktat" nomli asarida bu sonlar jadvali haqidagi ma'lumotlarni e'lon qildi.

Paskal uchburchagi ko'plab ajoyib xossalarga ega. Har bir qatorning chetlarida birlar joylashgan. Har bir qatordagi sonlar qatorning teng o'rtasiga

nisbatan simmetrik joylashgan, ya'ni qatorning boshidan va oxiridan baravar uzoqlikda turgan sonlar o'zaro teng. Ikkinchi qatordan boshlab har bir qatordagi birlardan tashqari ixtiyoriy son bu qatordan yuqorida joylashgan qatordagi biri shu son ustida, ikkinchisi esa undan chapda joylashgan ikkita gruppalashlar sonining yig'indisiga teng. Endi aslida uni qanday qo'llashni o'rganamiz.

1-misol. Paskal uchburchagidan foydalanib $(a + b)^2$ quyidagicha hisoblanadi: 1-shakldagi 2-qatordagi 1 2 1 sonlari ko'phaddagi har bir birhadning koeffitsiyentlari hisoblanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki ko'phadning har bir hadining darajasi 2 ga teng bo'lishi kerak. Demak, $(a + b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$

2-misol. $(a + 3b)^6 = a^6 + 6a^5 3b + 15a^4 9b^2 + 20a^3 27b^3 + 15a^2 81b^4 + 6a 243b^5 + 729b^6 = a^6 + 18a^5 b + 135a^4 b^2 + 540a^3 b^3 + 1215a^2 b^4 + 1458ab^5 + 729b^6$

Xulosa qilib aytganda bu "Paskal uchburchagi" bizga hisoblash uchun sal murakkabroq misollarni bajarish oson bo'lishi va daraja qiymatini hisoblashda vaqtdan yutish va tezlikni oshirish uchun qulay bir formula hisoblanar ekan.

ADABIYOTLAR:

1. Dustova Sh.B., Rasulov T.H. "NUMBER AND LOCATION OF EIGENVALUES OF GENERALIZED FRIEDRICHS MODEL WITH FINITE RANK PERTURBATIONS" Academy. Научно – методической журнал. Россия.2020. №4(55), [стр. 4-8].
2. Дустова Ш.Б., Тешаева Ш.Ш. "Создание графиков сложных функций с использованием графиков элементарных функций" Scientific progress, 2:1 (2021), p. [195-196].
3. Gulomjon Kurbonov and Shahlo Dustova "ON THE NUMERICAL RANGE OF A 2x2 OPERATOR MATRIX". *Journal of Global Research in Mathematical Archives* RESEARCH PAPER Available online at <http://www.jgrma.info> © JGRMA 2019, Volume 6, No.11, November 2019. All Rights Reserved 52

4. Дустова Ш.Б., Хамитова М.М.”Логарифм. Логарифмическая функция и её свойства” Scientific progress, 2:1 (2021), p. [185-186].

MINITAB DASTURIDA MA'LUMOTLARNI REGRESSION TAHLIL QILISH

Ergashev Isroilbek Abdirashid o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

isroilbek19960818@gmail.com

Regression tahlil yordamida bitta bo'g'liq o'zgaruvchi (natijaviy omil)ni bitta bog'liqsiz o'zgaruvchi (tushuntiruvchi omil) yordamida bashorat qilamiz(oddiy juftlik regressiya).

Regression tahlil orqali bashorat qilishni ko'ramiz uning uchun avvalo tanlanmani regression analiz qilamiz va regressiya tenglamasi tuzamiz

$$y = a_0 + a_1 x$$

Regressiya tenglamasi Minitab dasturida osongina tuzish mumkin.Buning uchun quyidagi amaliy misol orqali buni tushuntiramiz.

Misol: O'rmon xo'jaligining olingan statistik Ma'lumotlarga ko'ra quyidagi jadvalda har bir daraxt bo'yi va uning diametri (metrlarda) keltirilgan.Olingan Ma'lumotlarga ko'ra daraxt bo'yining eniga bo'g'liqligini tahlil qilib statistik xulosalar chiqaring va bo'yi 100 metr bo'lgan daraxt uchun enining o'lchamini bashorat qiling.


No	X - daraxt bo'yi	Y - daraxt diametri
1	35	8
2	49	9
3	27	7
4	33	6
5	60	13
6	21	7
7	45	11

8	51	12
---	----	----


Berilgan

masala bo'yicha ma'lumotlarni Minitab ma'lumotlar oynasiga kiritamiz (jadvalda ko'rsatilgan tartibda) va boshlang'ich statistik tahlillarni o'tkazamiz. Boshlang'ich statistik tahlil o'tkazishni [1] maqolada ko'rishingiz mumkin. Unda siz ma'lumotlar o'rtasida bog'liqlik qanday darajada ekanini aniqlashingiz mumkin.


Endi dasturda regressiya tenglamasini tuzamiz. Buning uchun Stat → Regression bo'limlarini tanlaymiz (1-rasm) va regression ishchi oynasini hosil qilamiz (2-rasm).



1-rasm



2-rasm



3-rasm

Response (natijaviy omil) bo'limiga daraxt diametrini Predictors (tushuntiruvchi omil) ga daraxtlar bo'yi kiritilgan ustunlarni biriktiramiz. Ma'lumotlarni ko'rsatilgan tartibda kiritdik endi 100 metrli daraxt uchun uning eni o'lchamini bashorat qilamiz. Uni quyidagi tartibda amalga oshiramiz. Ma'lumotlarni yuqorida ko'rsatilgan tartibda kiritgandan so'ng Ok tugmasini bosmasdan oynaning "Options" bo'limiga kiramiz va "Prediction intervals for new observations" ga 100 ni hamda "Confidence level" bo'limiga 95 ni kiritamiz va "OK" tugmasini bosamiz. (3-rasm). Biz bo'yi 100 metrli daraxtni 95%

ishonchlilik bilan enini bashorat qildik. Natija Minitab Project oynasida quyidagicha hosil bo`ladi.

Regression Analysis: y daraxt diametri versus x daraxt bo`yi

The regression equation is

$$y \text{ daraxt diametri} = 2,19 + 0,173 x \text{ daraxt bo`yi}$$

(regresssiya tenglamasi)

Predictor	Coef	SE Coef	T	P
-----------	------	---------	---	---

Constant	2,186	1,550	1,41	0,208
----------	-------	-------	------	-------

x daraxt bo`yi	0,17295	0,03691	4,69	0,003
----------------	---------	---------	------	-------

(Buyerda 2,186 a₀ ning 0,17295 a₁ ning nuqtaviy bahosi 0,17295 S a₀ uchun va 0,03691 S a₁ uchun bahonig standart xatoligi T t statistikalar.)

S = 1,29480 R-Sq = 78,5% R-Sq(adj) = 75,0%

(Buyerda S - baholashning standart xatoligi - ma`nosi regressiya chizig`i atrofida nuqtalarning sohilishini ifodalovchi kattalik.

R-Sq = 78,5% - Determinatsiya koiffitsenti - manosi y ning o`garishini nechcha foiz x o`zgarishi orqali ifodalash mumkinligini ifodalaydi.)

Predicted Values for New Observations

New

Obs	Fit	SE Fit	95% CI	95% PI
-----	-----	--------	--------	--------

1	19,480	2,257	(13,958; 25,002)	(13,114; 25,846)XX
---	--------	-------	------------------	--------------------

XX denotes a point that is an extreme outlier in the predictors.

Yuqoridan ko`rish mumkinki 100 metrli daraxt eni taxminan 19.480 metr bo`lishi mumkin ekan .100 metrli daraxt eni o`rtacha 95% ishonchlilik bilan o`rtacha uchun ishonch intervali (13,958; 25,002) xususiy qiymat uchun ishonch intervali (13,114; 25,846) yani 100 metrli daraxt eni o`rtacha (13,958; 25,002) xususiy qiymatda esa (13,114; 25,846) oraliqda bo`lishi mumkin ekan.

Xulosa qilib aytganda Rieltorlik kompaniyalari, turli ikki o`lchovli iqtisodiy ko`rsatkichli masalalarni jumladan sotuv hajmining reklama xarajatlariga bog`liqligi, Yalpi ichki daromadning tashqi qarzga bog`liqligi kabi dolzarb amaliy masalalarni hal etishda Minitab dasturidan foydalangan holda yuqorida

ko`rsatilgan misolda bajarilgan amallarni bajarib kerakli statistik xulosalar chiqarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdirashid o'g'li, I. E. (2022). MAVZU: MA'LUMOTLARNI KORRELYATSION TAHLIL QILISHDA MINITAB DASTURIDAN FOYDALANISH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 704-709.
2. Ergashev, I. (2021, November). Processing of Study Results by Mathematical Statistical Methods. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 34-35). 2.
3. Ergashev, I. A. (2021). OF SCIENTIFIC CONFERENCE "ACTUAL PROBLEMS OF STOCHASTIC ANALYSIS". *Kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayoni uchun limit teoremlar*, (663), 663.
4. I.A. Ergashev, & A.H. Hamdamov (2021). KO'P TIPLI GALTON – VATSON JARAYONLARI UCHUN LIMIT TEOREMLAR. *Academic research in educational sciences*, 2 (CSPI conference 3), 496-500.

MATHCAD TIZIMIDA KORRELYATSION TAHLIL

Jumayev J., Sadikova F.S., Shamsiddinova M. U.

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Bizga ma'lumki, turli izlanishlar bajarilayotgan vaqtlarda o'rganilayotgan faktorlar orasida funksional bo'g'liqlik bo'lmagan paytda korrelyatsion tahlildan foydalaniladi.

Korrelyatsion tahlilni amalga oshirilayotgan vaqtda juda ko'p murakkab hisoblashlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bunday hisoblashlarni hisoblash texnikasidan foydalanmay amalga oshirish ko'p vaqtni talab qiladi.

Ana shunday holatlarda korrelyatsion tahlil hisob-kitoblarini MathCAD tizimida amalga oshirish vaqtni tejashga olib kelishi bilan birga hisoblashlar aniqligini ham oshirishga olib keladi [1].

MachCAD tizimlari shuningdek kerakli grafiklarni ham qulay tarzda tuzishga yordam beradi, bu esa o'rganilayotgan faktorlar haqida tasavvurlarni oshirishga olib keladi.

Ushbu ishda MathCAD tizimida o'rganilayotgan jarayondagi faktorlarni korelyatsion tahlil va korrelyatsion bog'liqlik yordamida tahlil qilish bo'yicha amalga oshirish ketma-ketligi bayon etiladi.

Bizga quyidagi tajriba natijalari berilgan bo'lsin(1-jadval):

1-jadval. Tajriba natijalari.

X	7.5	7.8	8.2	8.5	8.8
Y	115	120	135	150	180

Jadvaldan ko'rinadiki, tajribalar soni 5 ta. MathCAD tizimida berilganlarni jadvalga joylashtirish kerak, buning bir necha usullari bor, masalan, 1-jadvaldagi qiymatlarni quyidagicha massivlarga o'zlashtirish mumkin:

$$x_1 := 7.5 \quad x_2 := 7.8 \quad x_3 := 8.2 \quad x_4 := 8.5 \quad x_5 := 8.8$$

$$y_1 := 115 \quad y_2 := 120 \quad y_3 := 135 \quad y_4 := 150 \quad y_5 := 180$$

Agar ma'lumotlar soni ko'p bo'lsa, MathCADning matrisalar hosil qilish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Endi indeksli o'zgaruvchi va tajribalar soni kattaliklarini kiritamiz va kiritilgan ma'lumotlarni bosmalab ko'ramiz:

$$n := 5 \quad i := 1..n$$

i =
1
2
3
4
5

$x_i =$
7.5
7.8
8.2
8.5
8.8

$y_i =$
115
120
135
150
180

Endi korrelyatsion tahlil uchun kerakli o'rta qiymatlarni hisoblaymiz:

$$x_{cp} := \sum_i \frac{x_i}{n} = 8.16 \qquad y_{cp} := \sum_i \frac{y_i}{n} = 140$$

Ushbu topilgan kattaliklardan foydalanib dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$dx := \frac{1}{n-1} \left[\sum_i (x_i - x_{cp})^2 \right] \qquad dx = 0.273$$

$$dy := \frac{1}{n-1} \left[\sum_i (y_i - y_{cp})^2 \right] \qquad dy = 687.5$$


Korrelyatsiya koeffisientini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$r := \frac{\left(\frac{n}{n-1} \right) \left[\sum_i \left(\frac{x_i \cdot y_i}{n} \right) - x_{cp} \cdot y_{cp} \right]}{\sqrt{dx} \cdot \sqrt{dy}} \qquad r = 0.958$$

Korrelyatsiya koeffisientini MathCADdagi corr funksiyasi orqali ham amalga oshirish mumkin:

$$s := \text{corr}(x, y) \qquad s = 0.958$$

Korrelyatsiya koeffisientining bu qiymati faktorlar o'rtasidagi bog'liqlik yuqori ekanini ko'rsatadi [2], buni tajriba nuqtalarini grafikda joylashtirib ham ko'rish mumkin:



1-rasm. Tajriba nuqtalarining koordinatalar tekisligida joylashuvi.

Ushbu grafikni olishda MathCAD tizimining grafik chizish imkoniyatlaridan foydalanildi [3].

1-chizmadan ko'rinadiki, ushbu nuqtalar parabolik bo'lgan chiziqqa juda yaqin ekan. Endi ushbu chiziqni regression tahlil orqali topib olish mumkin.

Shunday qilib, tajriba natijalarini korrelyatsion tahlil qilishda MathCAD tizimidan foydalanish formulalarni matematik ko'rinishda ekranda yozilishini ta'minlashi, hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi qulaylik, natijalarni grafik ko'rinishdagi chiroyli ko'rinishlarini yaratishi bilan izlanuvchilarda qiziqish uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кондратьев Ю. Н., Питухин А. В. и др. Математические методы и модели в расчетах на ЭВМ: Учебное пособие для студентов инженерных специальностей. Петрозаводск: Изд-во ПетрГУ, 2009. 132 с.
2. Кондратьев Ю. Н., Питухин А. В. и др. Математические методы и модели в расчетах на ЭВМ: Учебное пособие для студентов инженерных специальностей. Петрозаводск. 2010. URL: <http://elibrary.karelia.ru/>. (Раздел «Техника»).
3. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронный учебник. Казань: КФУ, 2021. – 228 с. <https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>.

TEKNOLOGIYA DARSDA AKTDAN FOYDALANISH INNOVATSION O'QITISH USULI SIFATIDA

Jurayev Otabek Tursunovich., Akbarova E'zozaxon Maxamatshukurovna

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

otabek7954@gmail.com, avazbek5354@gmail.com

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti inson faoliyati mahsuli sifatida o'ziga xos individual xususiyatlarga ega bo'lgan axborot ishlab chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'liq: u bir vaqtning o'zida bir nechta iste'molchilar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin, kamaymaydi, iste'mol qilinganda, u turli masofalarga oson va tez uzatiladi.

K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek "Bolalarning tabiati aniq ko'inishni talab qiladi" [4, p. 59]. AKT yordamida taqdim etilgan ob'ektlar ko'proq ma'lumotli, rang-barang bo'lib, ob'ekt yoki hodisani bir necha tomondan ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu materialni tushunish jarayonini tezlashtiradi, murakkab tushunchalarni idrok etish samaradorligini oshiradi, guruhning xususiyatlarini va bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda materialni o'zaro bog'lashga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining xususiyatlari bolalarda shaxsiy muloqot illyuziyasini, taqdim etilgan materialning maqsadlilikini yaratadi, bu esa yuqori pedagogik ta'sirni ta'minlaydi.

Kompyuter texnologiyalarining maktab o'quvchilarining kognitiv faoliyatiga ta'siri shubhasiz: kompyuter o'yinlari ushbu jarayonga kiritilganda yangi ma'lumotlar bilan tanishish qiziqarli bo'lishi mumkin; kompyuterdan foydalanish barqaror emotsional holatni ta'minlaydi (hatto bolaning savolga javob berishda, harakat tanlashda va hokazolarda xatosi salbiy javobni keltirib chiqarmaydi), bundan tashqari, bolaning harakatlari yuqori darajadagi maxfiylikka ega bo'ladi.

Hozirgi maktab yoshidagi bolalar turli axborot texnologiyalari va turli xil texnik vositalarning keng doirasi bilan yaxshi tanish bo'lib, bu ularning kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni idrok etishga tayyorligidan dalolat beradi. Biroq, bolalar ushbu tayyorgarlikning turli darajalariga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun maktab o'quvchilarining maqsadli foydalanish vositalari (masalan, kompyuter) yordamida ma'lumotni idrok etish qobiliyatini, shuningdek, texnik vositalardan foydalangan holda ishlash qobiliyatini diagnostika qilish tavsiya etiladi.

Bunday diagnostika aqliy jarayonlarning, jismoniy va intellektual qobiliyatlarning rivojlanish darajasini aniqlash, darslar davomida har bir bolaga individual yondashuvni topish, har bir bola uchun individual ravishda vazifalarning murakkablik darajasini tanlash va boshqalar uchun mo'ljallangan. AKT vositalaridan foydalangan holda bolalarga taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, bolalarni idrok etish jarayonini engillashtirish uchun o'qituvchi tomonidan

oldindan qayta ishlanishi va optimallashtirilishi kerak. Materialni taqdim etish tartibi va mantig'i idrok etish, tushunish va yodlash jarayonlariga maksimal darajada ta'sir qilishi kerak. Ya'ni, axborot nafaqat yangi bilimlarni etkazishi, balki fikrlash jarayonini ushbu bilimlarni qayta ishlash uchun faol harakatlarga yo'naltirishi kerak.

Darslarda AKTdan foydalanishda o'qituvchi nafaqat o'zining tayyorgarligi va maktab o'quvchilarining tayyorgarligini, balki ushbu texnologiyalardan darsda foydalanishning maqbul chastotasini ham hisobga olishi kerak. Bunday vositalardan kamdan-kam foydalanish bilan, ulardan har bir foydalanish bolalar uchun o'ziga xos narsaga aylanadi, katta hissiy hayajonni keltirib chiqaradi va bu hayajon ma'lumotning o'zi bilan emas, balki uning manbai bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun ma'lumotni o'z-o'zidan o'rganish mumkin. ularni noto'g'ri yoki to'liqsiz. Shu sababli, maktab o'quvchilari birinchi navbatda sinfda qo'llaniladigan texnologiya bilan tanishishlari kerak, shuningdek, bunday ish shakli bolalarga tanish bo'lishi va ularni haddan tashqari hayajonlantirmasligi uchun bunday texnologiyalardan kamdan-kam foydalanishlari kerak.

Aksincha, kompyuter vositalaridan juda tez-tez yoki uzoq vaqt foydalanish ham ma'lumotni idrok etishga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto taqdim etilgan materialga qiziqishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Katta hajmdagi ma'lumotni bu tarzda taqdim etish diqqatning pasayishiga, hajmning yo'nalishini yo'qotishiga va uni tushunishda qiyinchilikka olib keladi. Shunday qilib, zarur tashkil etilgan va ko'plab omillarni hisobga olgan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalarni turli maktab fanlari, shu jumladan texnologiya kabi fanlar bo'yicha o'qitishni tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

Texnologiya maktab fani sifatida fanning turli sohalaridan olingan nazariy bilimlarni turli faoliyat turlarida amaliy qo'llashni o'rgatadi. Mehnat faoliyati texnologiyasiga o'rgatish bolalarning jinsini hisobga olgan holda sinfni kichik guruhlarga bo'lish orqali amalga oshiriladi, chunki o'qitish yo'nalishlari har xil (qizlarga uy ishlarini o'rgatish, o'g'il bolalarga asboblarni yordamida turli materiallar bilan ishlashni o'rgatadi) [2, p. 18].

O'rta sinflarda texnologiya darslarida o'g'il bolalar materiallar bilan ishlashning turli usullarini o'zlashtiradilar, ularni qayta ishlash va yog'och, metall va boshqalardan oddiy qismlar yasashni o'rganadilar. Darsda materialning mazmuni AKTning turli shakllaridan foydalanishga imkon beradi (yangi materialni, shu jumladan nazariy materiallarni etkazish uchun taqdimotlar, video eshittirishlar, talabalarning kompyuter bilan individual ishi va boshqalar). Shuni ham ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda AKTdan foydalanish nafaqat maqsadga muvofiq, balki zarur, chunki ba'zan biron bir materialni, uni qayta ishlash mashinasini, maktab sharoitida qo'llaniladigan texnologiyani ko'rsatish shunchaki imkonsizdir, lekin AKT yordamida bolalar ko'rishga asoslangan aniq tasavvurga ega bo'lishlari mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari texnologiya darsining turli bosqichlarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Бим-Бад Б. М. Педагогический энциклопедический словарь. — М., 2002. С. 191.
2. Zhuraev, O. (2023). DEVELOPMENT OF ICT COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE PROCESS OF CONTINUING EDUCATION. Science and innovation, 2(B4), 48-53.
3. Сасова, И. А. Технология. 5–8 классы: программа / И. А. Сасова, А. В. Марченко. — М.: Вентана-Граф, 2011.
4. Селевко Г. К. Энциклопедия образовательных технологий: В 2 т. Т. 1. М.: НИИ школьных технологий, 2006. 816 с.
5. Ушинский, К. Д. Избранные труды. В 4 книгах. Книга 4. Человек как предмет восприятия. Опыт педагогической антропологии. — М: Дрофа, 2005. — 544 с.

OLIY TA'LIMDA MATEMATIK ANALIZ ELEMENTLARINI DASTURIY PAKETLAR IMKONIYATLARI VOSITASIDA O'RGANISH

Mamadjanova M.K., O'ktamova G.M

Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston

mamura.mamadjanova1981@mail.ru

Axborot texnologiyalarining o'qitilishi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorining malakali IT- mutaxassislariga bo'lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “ Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash har birimizning muhim vazifalarimizdan biri edi.

Kelajakni kompyutersiz tasavvur qilib bo'lmasligi barchamizga ayyonligidan, ta'lim tizimining barcha jabhasiga axborot texnologiyalarini chuqur o'rgatish kerakligi bugungi kundagi maqsadimizga aylandi.

Bugungi kunda jiddiy dizayn, shaharsozlik va arxitektura, elektrotexnika va unga bog'liq bo'lgan ko'plab sohalar, shuningdek, texnik ta'lim muassasalari endi kompyuter yordamida loyihalash (CAD), ishlab chiqarish va hisob-kitoblarsiz qila olmaydi. Matematik paketlar CAE tizimlari dunyosining ajralmas qismidir, ammo bu qismni hech qanday tarzda ikkinchi darajali deb hisoblash mumkin emas, chunki ba'zi muammolarni kompyuter yordamisiz umuman hal qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda hatto nazariyotchilar (sof, amaliy bo'lmagan matematiklar deb ataladiganlar) o'zlarining gipotezalarini sinab ko'rish uchun, masalan, ramziy matematika tizimlariga murojaat qilishadi.

Zamonaviy matematik paketlardan oddiy kalkulyator sifatida ham, har qanday muammolarni hal qilishda ifodalarni soddalashtirish vositasi sifatida ham, grafik yoki hatto ovoz generatori sifatida ham foydalanish mumkin.

Xo'sh, bu dasturlar nima qiladi va ular matematiklarga qanday yordam beradi? Oliy o'quv yurtlarida matematik tahlil kursining asosini funksiyalarning chegaralari, hosilalari, antiderivativlari, turli tipdagi integrallar, qator va differensial tenglamalar kabi tushunchalar tashkil etadi. Oliy matematika asoslari

bilan tanish bo'lgan har bir kishi, ehtimol, chegaralarni topish, integrallarni olish, hosilalarni topish va hokazolarning o'nlab qoidalarini biladi. Agar biz bunga ko'pgina integrallarni topish uchun asosiy integrallar jadvalini ham eslab qolishimiz kerakligini qo'shsak, biz haqiqatan ham juda katta ma'lumotga ega bo'lamiz. Agar siz bir muncha vaqt bunday muammolarni hal qilishda mashq qilmasak, unda ko'p narsa tezda unutiladi va masalan, integralni topish qiyinroq bo'lsa, biz ma'lumotnomalarni ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Lekin real ishda integrallarni olish va chegaralarni topish hisob-kitoblarning asosiy maqsadi emas. Haqiqiy maqsad ba'zi muammolarni hal qilishdir va hisob-kitoblar bu yechim yo'lidagi oraliq qadamdir, bunda amaliy paketlarning o'rni muhimdir.

Maple dasturi - matematika tizimlari oilasining o'ziga xos yetakchi va hanuzgacha matematik hisob-kitoblarning universal tizimlari orasida yetakchilardan biri hisoblanadi. U foydalanuvchiga har qanday darajadagi matematik tadqiqotlar uchun qulay intellektual muhitni taqdim etadi va ayniqsa ilmiy jamoatchilikda mashhurdir. E'tiborlisi shundaki, Maple dasturining sonli analizatori ushbu dasturiy ta'minotning eng kuchli qismidir, shuning uchun MathCad va MatLab kabi bir qator boshqa CAE paketlariga, shuningdek Scientific WorkPlace va Word uchun Math Office paketlariga ilmiy nashrlarni tayyorlash uchun kiritilgan. Maple tizimi ifodalarni hosil qilish, qisqartirish va o'zgartirishning turli usullarini taklif etadi, masalan, algebraik ifodalarni soddalashtirish va faktorlarga ajratish hamda ularni turli shakllarga aylantirish, shu jumladan, Maple tenglamalar va tizimlarni yechish uchun ishlatilishi mumkin.

Kichik miqdordagi hisob-kitoblar uchun MathCad idealdir - bu yerda hamma narsani juda tez va samarali bajarish mumkin, keyin esa ishni odatdagi usulda formatlash mumkin (MathCad Internetda nashr etilgunga qadar natijalarni formatlash uchun keng imkoniyatlar beradi).

Paketda qulay ma'lumotlarni import/eksport qilish imkoniyatlari mavjud. Masalan, siz MathCad hujjatining ichida Microsoft Excel elektron jadvallari bilan ishlashingiz mumkin. Umuman olganda, MathCad juda sodda va qulay dastur bo'lib, uni keng foydalanuvchilar doirasiga, jumladan matematikadan unchalik

xabardor bo'lmaganlarga va ayniqsa uning asoslarini endigina o'rganayotganlarga tavsiya qilish mumkin.

Differentsial tenglamalarni yechish ancha murakkab masala. Shu sabab Mathcadda barcha differentsial tenglamalarni ma'lum chegaralanishlarsiz to'g'ridan-to'g'ri yechish imkoniyati mavjud emas. Mathcadda differentsiallar tenglama va tizimlarini echishning bir necha usullari mavjud.

MatLab tizimi ramziy matematika uchun mo'ljallangan mahsulotlarning o'rta darajasiga tegishli, lekin CAE sohasida keng qo'llash uchun mo'ljallangan (ya'ni, u boshqa sohalarda kuchli). MatLab matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun dastlabki dasturiy timiz bo'lib, sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan va vaqt sinovidan o'tgan tizimlardan biri bo'lib, matritsa operatsiyalarining kengaytirilgan ko'rinishi va qo'llanilishiga asoslangan. Bu tizim nomining o'zida aks ettirilgan - MATrix LABoratory, ya'ni matritsa laboratoriyasi. Biroq, tizim dasturlash tilining sintaksisi shu qadar puxta o'ylanganki, bu yo'nalish matritsalarini hisoblash bilan bevosita qiziqmaydigan foydalanuvchilar tomonidan deyarli sezilmaydi.

MatLab dastlab faqat hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, evolyutsiya jarayonida mukammal hisoblash vositalariga qo'shimcha ravishda, MatLab litsenziyasi ostida Waterloo Maple-dan ramziy transformatsiya yadrosi sotib olindi va MatLabda matematik paketlarga xos funksiyalarni ta'minlovchi kutubxonalar paydo bo'ldi. Masalan, taniqli Simulink kutubxonasi vizual dasturlash tamoyilini amalga oshirib, bir qator kod yozmasdan, faqat qurilish bloklaridan murakkab boshqaruv tizimining mantiqiy diagrammasini qurish imkonini beradi. Bunday sxemani qurganingizdan so'ng, uning ishlashini batafsil tahlil qilishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, matematik analiz kursida matematik paketlardan foydalanishning dolzarbligi, dars jarayonlarida talabalarning matematik paketlarni amaliy qo'llash usullari, foydalanish strukturasi va talabalarga kasbiy faoliyatida amaliy masalalarni hal qilishda dasturlashning muhimligini aytib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахманов А. Г. Использование Современных Информационных Технологии В Образовании //Frontier In Mathematics And Computer Science. – 2020. – Т. 12. – С. 128.
2. Дьяконов В. П. Maple В Математических Расчетах. Издательство: ДМК-Пресс, 2018 Г. <https://www.Labirint.Ru/Books/423645/>
3. Курбатова Е.А. MATLAB 7. Самоучитель. – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2006. – 256 с

TALABALARNING BILIMINI NAZORAT QILISHNING TEZKOR VA SAMARALI USULI

G.R.Muxamedova G.R., Hamroqulova D.F

TDPU, Toshkent, Urganch, O‘zbekiston

muxamedovagulchehra74@gmail.com, dhamroqulova98@gmail.com

Bugungi kunda oliy ta’limda talabalarning bilim va ko’nikmalarini oqilona, xolis nazorat qilish, qisqa vaqtda katta sondagi talabalarning bilimini baholash dolzarb hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida talabalarning bilim va ko’nikmalarini ko’p bosqichli nazorat qilishning turli tizimlaridan foydalanish kirish, joriy va yakuniy nazoratning turli xil o‘zaro bog‘liq vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni talab qiladi. Mana shunday nazorat usullaridan biri test metodi hisoblanadi.

Ma’lumki, test metodi (ingl. “test” – sinash, tekshirish) - o’rganilayotgan shaxsning aqliy rivojlanish darajasi, qobiliyati, muayyan ish-harakat, faoliyatni bajarishga doir ko’nikma, malakalari, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlari, shaxslar guruhi (masalan, talabakar guruhi) ga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashda qo’llaniladigan qisqa standart tekshirish yoki sinov usulidir. Ta’lim sohasidagi test sinovi – bu testdan o‘tuvchilarning ma’lum o‘quv fanlari yoki ta’lim dasturlari bo‘yicha tayyorgarligi darajasini xolis baholash usullaridan biri bo‘lib, talab darajasida o‘tkazilsa yaxshi samara berishi ham sir emas. Quyida talabalarning bilimini tekshirishning ommabop, samarali usuli bo‘lgan matematik diktantni test shaklidagi o‘tkazishni ko‘rib o‘tamiz. Bunda

talabalarining tezkorligi, bilimdonligi, diqqatni jamlay olishi juda muhim omillardan hisoblanadi.

O'quv materiali o'rganilgandan so'ng, talabalar tomonidan materialni o'zlashtirish sifatini tekshirish talab qilinadi. Buni tekshirishning eng samarali usullaridan biri matematik diktantdir. Matematik diktant o'qituvchi tomonidan diktovka qilib yoki namoyish qilib turiladi. Bunda har bir talaba berilgan topshiriqqa mustaqil ravishda yondashadi va o'z fikr-mulohazalarini, javoblarini bayon qiladi. Matematik diktant natijasida talabalar mantiqiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, muammolarni turli usullar orqali hal qilishga, hozirjavoblikka o'rganadilar.

Oliy ta'lim tizimi algebra darslarida ham matematik diktant orqali o'quvchilar bilimni nazorat qilish samarali natija beradi. Matematik diktantdan joriy, oraliq nazoratlarda foydalanish mumkin. Buning uchun bitta mavzu yoki bo'lim tanlab olinadi. Tanlab olingan mavzu yoki bo'lim yuzasidan ikki va undan ko'proq variantda savollar tuziladi. Tuzilgan savollar o'qituvchi tomonidan namoyish qilib boriladi. Savollar turiga va qiyinlik darajasiga qarab har bir savolga turlicha vaqt va ball beriladi.

Algebra va sonlar nazariyasi fanidan bir necha javobli matematik diktantga misol keltiramiz. "Lejandr simvoli" mavzusiga oid quyidagi ko'rinishlardagi testlardan foydalanish mumkin (1-jadval).

Bu kabi matematik diktantni o'tkazish tartibi quyidagicha: guruh ikkita variantga bo'linadi. Berilgan savollar birma-bir namoyish qilinadi. Savol uchun ajratilgan vaqt (har bir savol uchun ajratilgan vaqt avvaldan e'lon qilinadi) nihoyasiga yetganidan so'ng keyingi savolga o'tiladi. Keyingi savolga o'tilgandan so'ng orqaga qaytilmaydi. Berilgan vaqt ichida barcha talabalar savolga javobni topishga ulgurishlari kerak, ya'ni talabalar ishni bir vaqtda tugatadilar. Diktant yakuniga yetgandan so'ng, javoblar yozilgan daftarlar bir vaqtda yig'ib olinadi va har bir savolga ajratilgan ballar hisoblanib, talabalar baholanadi.

I variant	II variant
1. $ax^2 + bx + c \equiv 0 \pmod{m}$ ikkinchi darajali taqqoslamani $x^2 \equiv d \pmod{m_1}$ ko'rinishga o'tkazing.	
$3x^2 + 2x + 2 \equiv 0 \pmod{7}$ A) $y^2 = 64 \pmod{84}$ B) $y^2 = 84 \pmod{64}$ C) $y^2 = 68 \pmod{48}$ D) $y^2 = 46 \pmod{84}$	$3x^2 + 5x - 5 \equiv 0 \pmod{6}$ A) $y^2 = 58 \pmod{72}$ B) $y^2 = 85 \pmod{72}$ C) $y^2 = 58 \pmod{27}$ D) $y^2 = 85 \pmod{27}$
2. Berilgan ikkinchi darajali taqqoslamani yeching.	
$x^2 \equiv 3 \pmod{5}$ A) $x = \pm 1 \pmod{5}$ B) $x = \pm 2 \pmod{5}$ C) $x = \pm 7 \pmod{5}$ D) <i>yechimga ega emas</i>	$x^2 \equiv 2 \pmod{7}$ A) $x = \pm 1 \pmod{5}$ B) $x = \pm 3 \pmod{5}$ C) $x = \pm 9 \pmod{5}$ D) <i>yechimga ega emas</i>
3. Lejandr simvolini hisoblang.	
$\left(\frac{5}{31}\right)$ A) 1 B) -1 C) <i>aniqlab bo'lmaydi</i>	$\left(\frac{3}{19}\right)$ A) <i>aniqlab bo'lmaydi</i> B) -1 C) 1
4. Quyidagi taqqoslama yechimga egami?	
$x^2 \equiv 5 \pmod{17}$ A) <i>ha</i> B) <i>yoq</i>	$x^2 \equiv 7 \pmod{19}$ A) <i>ha</i> B) <i>yoq</i>
5. Lejandr simvolining xossalari yozing.	

1-jadval

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi ko'rinishdagi nazorat turi talabalarda matematik fikrlash, muammolarni mustaqil yecha olish qobiliyatini shakllantiradi, hozirjavoblikka o'rgatadi. Bundan tashqari, o'qituvchi uchun ham talabalar bilimini nazorat qilishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent-2021 yil.
2. Виноградов И.М. Основы теории чисел. Москва-Юрайт-2018.

ANALITIK GEOMETRIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich, Amonov Zikrillo Shukrullo o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

gulomjonqurbonov8@nmail.com, Amonovzikrillo7@gmail.com

Hozirgi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar pirovard natijada jahon talablari darajasidagi bilim va malakalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko‘zda tutadi. Ayniqsa, ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg‘or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug‘dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Hozirgi kunda raqamli ta’lim tizimidan asosan to‘rt yo‘nalishda foydalanib kelinmoqda: o‘rganish ob‘ekti sifatida, o‘qitishning texnik vositalari sifatida, ta’limni boshqarishda, ilmiy-pedagogik izlanishda.

Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning afzalliklari keng qamrovli bo‘lib, unda talabalarga ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqarishi, mashq qilinadigan topshiriqlar sonining oshishi, talabalarning ishlash sur‘ati jadallashishi, kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida talaba ta’lim sub‘ektiga aylanishi, ularning mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo‘lishi, dasturiy vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta’minlash imkoniyati hosil bo‘lishi, kompyuter bilan muloqot didaktik o‘yin xarakterini olishi va bular orqali talabalarda o‘quv faoliyatiga motivatsion kuchayishi nizada tutiladi. Raqamli ta’lim jarayonida ta’lim, talaba va dasturiy vositalar orasidagi munosabatlarga ko‘ra tashkil etilib, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Analitik geometriya fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari:

- dasturiy vositalar yordamida o‘quv materiallarini taqdim etish;
- multimediyadan foydalanish;

- tashxis va reyting nazorati;
- masofaviy ta'lim, muloqotni tashkil etish.

Analitik geometriya fanini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanishga misol sifatida "Fazoda tekislik tenglamalari" mavzusini o'qitishda foydalaniladigan elektron ishlanmalar bilan tanishtirib o'tadigan bo'lsak, unda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xonada yangi mavzuni tushuntirish uchun elektron ma'ruza matni tayyorlanadi. O'qituvchi yangi tushunchalarni kiritishda bu tushunchaning tarixi, hamda o'rganilayotgan fan va boshqa fanlar doirasidagi o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berib, turli chizmalardan, ayrim hollarda esa tayyor plakatlardan foydalanadi. Elektron ma'ruza matni bu kabi ma'lumotlarni o'zida yashiringan holda saqlash (gipermatnlar), plakatlar, chizmalarni slaydlarda "jonlantirish" (multimediya, video) imkoniyatlariga egaligi unda alohida o'rin tutadi.

Elektron ma'ruza matnidagi turli ranglardan foydalanib, tayyorlangan chizma va rasmlar, tasdiqlarning isbotlari, misol va masalalarning yechimlari talabalar e'tiborini chalg'itmasligi uchun ularni navbat bilan, ma'ruza davomida o'z o'rnida gipermatnlarni ochish bilan namoyish etish va ularga sharh berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Fazoda tekislik tushunchasini kiritishda "Muammoli ta'lim" hamda "Klaster" texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar fikrini bilish, yo'naltirish jarayoni yakunida elektron matndagi tayyor klasteri ko'rsatish mumkin. Boshqa ta'lim texnologiyalaridan farqli o'laroq bunda turli ranglardan foydalanilganiga talabalar e'tiborini qaratish orqali uning sababini so'rash, ularning mustaqil fikrini shakllantirish hamda kiritilayotgan yangi tushunchalarning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Asosiy tushunchalarni kiritish va kiritilgan tushunchalarga doir misollarni, har bir talaba yakka yoki juftlikda mustaqil ishlashi uchun topshiriqlarni keltirishda gipermatnga yashiringan multimedia imkoniyatlaridan foydalanilgan slaydlarni o'qituvchi nutqi davomida namoyish etish bilan bu tushunchalarning talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga erishiladi. Yangi mavzuni tushuntirish davomida fazoda tekislik tenglamalari kanonik ko'rinishga keltirilib, ulardan birining isboti tushuntiriladi. Shu o'rinda barcha tasdiqlarning

formulalari gipermatnga kiritilgan bo'lsa, o'qituvchi talabalardan qaysi bir formulani isbotlash qiyinroq isbotlanishini so'rab, ular tanlagan tasdiq isbotini namoyish etadi. Bunda har bir topshiriq uchun ajratilgan vaqt ko'rsatilgan bo'lishi va belgilangan vaqt o'tgach o'z-o'zini yoki sherigini nazorat qilish uchun topshiriqlarning javoblari namoyish etiladi. Har bir to'g'ri hal etilgan nazorat topshirig'i uchun ajratilgan ballarning keltirilishi talabalarning dars davomida yig'gan ballarini o'zlari aniqlashlari imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o'z ustida ko'proq ishlashga jalb etish, ta'lim berish jarayonlarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman B.L, Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent, 2002-yil, 192 bet.
2. Kurbonov G.G. Didactic possibilities of teaching general subjects on the basis of digital educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. 451-456.
3. Kurbonov.G.G. On general professional sciences electronic software of the educational process. “Actual problems of modern science, education and training”. №8, Xorazm, 2022. – P. 33-37.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРДАН Фойдаланишнинг аҳамияти

Қаҳҳоров Сиддиқ Қаҳҳорович., Рустамов Ҳаким Шарипович

Бухоро давлат университети, Бухоро, Ўзбекистон

rhsh0405@gmail.com

Мамлакатимизда таълим сифатини ва самарадорлигини янги сифат босқичига кўтариш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг интеллектуал салоҳиятини ва юксак маънавий-маърифий дунёкарашини ривожлантириш сари йўналтирилган давлат сиёсати жамият тараққиётини, халқ фаровонлигини ва

жамиятнинг жаҳон ҳамжамиятидаги ўрнини таъминловчи устувор йўналишлардан бири сифатида эътироф этилмоқда.

Педагог кадрлар тайёрлашнинг сифатини яхшилашда мутахассисларнинг касбий ва шахсий ривожланиши учун шарт-шароит яратиш, уларнинг касбий компетенциясини шакллантириш ва таянч компетенцияларини ривожлантиришда дастурий воситалардан фойдаланишнинг аҳамияти беқиёсдир.

Халқаро миқёсда таълим мазмунини танлаш мезони сифатида компетенцияга асосланган ёндашув асосида билимларни белгилайди, уларнинг ўзлаштирилишини бевосита ўқув жараёнида талабалар учун долзарб бўлган ижтимоий ва ҳаётий муаммоларни ҳал қилиш амалиётида қўллаш имконини беради. 1996 йилда Бернда Европа Кенгаши дастурида "Европа учун таянч компетенциялар" мавзусидаги Симпозиум ташкил этилиб, унда Европа Иттифоқига аъзо давлатларнинг узлуксиз таълим тизими учун дастлабки таянч компетенцияларини белгилаш ва талабанинг муваффақиятли яшаши ҳамда ўқишни давом эттириши учун эга бўлиши лозим бўлган "таянч компетенциялар" ни шакллантириш вазифаси илгари сурилган. Хусусан, ҳаётда, касбий меҳнатда, оилада ва бошқа ижтимоий соҳаларда муваффақиятга эришиш учун битирувчидан мустақил фикрлаш ва индивидуал ташаббусини, жисмоний ва ижтимоий-маданий воситалардан фойдаланишни, ўз она тилида ўқиш, ёзиш ва хорижий тилни ўрганишни, математик саводхонликни, компьютер ва дастурий воситалардан фойдаланиш каби таянч компетенцияларга эга бўлишни талаб қилади[1].

Республикамизда таълимнинг узлуксизлиги ва узвийлиги, тизимлилиги, ўқувчи шахси ва қизиқишлари асосий ўринда туришидан келиб чиққан ҳолда, уларнинг ёш хусусиятларига мос равишда қуйидаги таянч компетенцияларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда[2]:

- коммуникатив компетенция — жамиятда ўз она тилида ёки чет тилида мулоқот қилиш лаёқатига эга бўлиш, муомала маданияти талабларига амал

қилиш ва жамоада самарали ишлай олиш қобилиятини шакллантиришни назарда тутати;

- ахборотлар билан ишлаш компетенцияси — интернет, китоб ва журналлар, оммавий ахборот воситалари ва бошқа манбалардан зарур ахборотларни излай олиш, уларни саралаш, қайта ишлаш, сақлаш, улардан самарали фойдалана олиш, ахборотларнинг дахлсизлигини таъминлаш, ахборот маданиятига эга бўлиш қобилиятларини шакллантиришни назарда тутати;

- ўзини-ўзи ривожлантириш компетенцияси — шахс ўзининг жисмоний, маънавий, рухий, интеллектуал ва креатив сифатларини ўстириб бориши, камолотга интилиш, мустақил ўқиб-ўрганиш, когнитивлик кўникмаларини ва ҳаётий тажрибани мунтазам ошириб бориш, ўз хатти-ҳаракатини муқобил баҳолаш ва мустақил қарор қабул қила олиш кўникмаларини эгаллашни назарда тутати;

- ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси — ижтимоий ҳаётда бўлаётган воқеа, ҳодиса ва жараёнларга нисбатан бефарқ бўлмастик ва уларда фаол иштирок этиш, ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиш, англаш, унга риоя қилиш, меҳнат ва фуқаролик муносабатларида муомала ва ҳуқуқий маданиятга эга бўлиш лаёқатини шакллантиришни назарда тутати;

- миллий ва умуммаданий компетенция — ўз ватанига содиқ, инсонларга меҳр-оқибатли ҳамда умуминсоний ва миллий қадриятларга муҳаббатли бўлиш, инсоннинг ижодий маҳсулини, бадиий ва санъат асарларини тушуниш, дид билан кийиниш, ижтимоий-маданий қоидаларга ва соғлом турмуш тарзига амал қилиш лаёқатини шакллантиришни назарда тутати;

- математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси – шахсий, оилавий, касбий ва иқтисодий режаларни аниқ ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда туза олиш, ижтимоий турмушда турли инфографика, диаграмма, гистограмма, чизма ва моделларни ўқий олиш, автоматлаштирилган, меҳнат унумдорлигини оширадиган, инсонларга қулай шарт-шароит яратадиган фан ва техника

янгиликларидан хабардор бўлиш ва улардан фойдалана олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутди.

Албатта, талабаларнинг таянч компетенцияларини шакллантириш ва уни ривожлантириш жуда кўп вақт талаб қиладиган мураккаб жараён бўлиб, замонавий ахборот технологиялардан ва дастурий воситалардан фойдаланмасдан амалга ошириш жуда ҳам мушкул иш ҳисобланади.

Шундай экан, таянч компетенцияларни эгаллашда ўқитишнинг мақсад ва вазифаларини аниқлаштириш, ўзлаштириш нуқтаи назаридан унинг имкониятларини рўёбга чиқаришни таъминлайдиган методларни ишлаб чиқиш, сифат жиҳатидан касбий компетенцияларни такомиллаштириш, таянч компетенцияларни тезкор ва самарали ўзлаштиришда дастурий воситаларнинг аҳамияти муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec. (96) 43. Берн, 1996.
2. Қаҳҳоров С.Қ., Рустамов Ҳ.Ш. Талабаларнинг коммуникатив компетенциясини ривожлантиришда дидактик дастурий воситалардан фойдаланиш. “Педагогик маҳорат”. Илмий-назарий ва методик журнал. -Б. 2023. № 3. 52-58 б

O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Rustamov Hakim., Namozova Nigina

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

rhsh0405@gmail.com

Bugungi globallasuv jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi mehnat unumdorligini tubdan o'zgartirmoqda. Har qanday o'zgarish va yangilanishlar jamiyat tarqqiyoti va rivojlanish bosqichining istiqbollari belgilab beruvchi asosiy omildir.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalar asrida axborot kommunikatsion texnologiyalar barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun sifatli va samarali ta'lim olish imkonini bermoqda. Axborotlashgan jamiyat va axborot texnologiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, axborot texnologiyalari – bu axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, boshqarish va uzatish vositalari hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan har bir o'quvchi eng yangi va so'ngi texnologiyalarni qo'llay oladigan foydalanuvchiga aylanadilar.

Dunyoning nufuzli va ilmiy-texnik rivojlanishida taraqqiyot cho'qqisiga chiqayotgan mamlakatlarda yaratilayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalarning izchil ravishda tarqalishi axborot asrida ta'limning yetakchilik darajasini tasdiqlovchi asosiy dalillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bunday rivojlanish darajasi ma'lum bir mamlakatning hozirgi vaqtdagi qudrati va turmush darajasini belgilab qolmay balki ushbu mamlakatning dunyo bozoridagi o'rni va rolini, shu bilan birga uning integratsiyalashuvining rivojlanish istiqbollari ko'rsatib beradi. Shunday ekan, har bir mamlakatda axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanish darajasi va ulardan foydalana olish ko'nikmalari nafaqat ularning moddiy resurslar bilan, balki aholi qatlaming yangi bilimlarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ta'lim sohasidagi bunday yutuqlar o'z navbatida ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy jamiyatda ta'lim jarayoni va axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'zaro uyg'unlashuvining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib turadi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida samarali qo'llash ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy faktorlardan biri ekanligi, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirilishida axborot kommunikatsion texnologiyalarining roli kun sayin oshib borayotganligini ko'rsatadi.

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bu atama so'zlovchining til

resurslaridan kommunikativ jarayonda va muloqotning muayyan maqsadlarida foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya inson taraqqiyoti jarayonida bosqichma-bosqich shakllanib, uning darajasi shaxsning kamolotga erishishi va o'quv jarayonlarining rolini oshirish natijasi bo'lib, davom etayotgan o'zgarishlarning aksidir. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyani pedagogik nuqtai nazardan o'quvchi(talaba)larning pedagogik muloqot jarayonida o'rganadigan, mustahkamlaydigan va mashq qiladigan lingvistik vositalar to'plami sifatida aniqlash mumkin.[1]

Kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida, axborot, til va madaniyatni tez egallashda axborot texnologiyalarning o'rnini beqiyosdir.

Har qanday kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- bilimga ega bo'lish;
- kompetensiya mazmun mohiyatini tushunish;
- turli vaziyatlarda kompetensiyaning namoyon bo'lish jarayonlarini his qilish va tushunish;

O'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yordam beradigan axborot kommunikatsion texnologiyalari va vositalari quyidagilardan iborat.

- kompyuter;
- internet tarmog'i;
- trenajyor dasturiy vositalar;
- pedagogik dasturiy vositalar;
- lug'atlar va boshqalar;

Yuqorida keltirilgan vositalardan foydalanganda biz quyidagilarga erishamiz:

- nutq mahorati: o'rta maktab o'quvchilari dialogni avval slayd shaklida ishora bilan takrorlaydilar, so'ngra mustaqil ravishda namoyish etadilar;
- nazorat mahorati: o'rta maktab o'quvchilari topshiriq kartasini tanlaydilar va ushbu dasturning lug'atidan foydalangan holda va o'z tasavvurlarini ko'rsatgan holda

o'zlarining dialoglarini tuzadilar. Vosita sifatida kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi:

-tinglash malakasi: kompyuter texnologiyasi tahlil qilish, tushuntirish, tarjima qilish va hokazolarni talab qiladigan xabarni tinglashdan foydalanadi.[3]

Shunday qilib, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mumkin. Axborot texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'taradi, balki o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Axborot texnologiyalar asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish barobarida mehnat va ijtimoiy hayotda yordam beradigan nutq, tinglash, yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhorov S.S., Rustamov H.Sh. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik dasturiy vositalardan foydalanish// Pedagogik mahorat. 2023. №3. B.52-59
2. Троицкая Ю. В. Коммуникативная компетенция: демаркация значения // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2020. № 7 (150). С. 112–119.
3. Axmetova A. O'rta umumta'lim o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishda axborot texnologiyalari // Universum: psixologiya i obrazovanie : elektron. nauchn. jurn. 2022. 3(93).

OLIV TA'LIM MUASSALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ELEKTRON TA'LIM TIZIMI MISOLIDA

Sadullayev Ibrat Shuxratovich

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

e-mail: i.s.sadullaev@buxdu.uz

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatimizning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonlarining ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz fuqarolarining

barcha qatlami ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi" [1]. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar, ta'lim usullarini, tajribalarini va o'rganish jarayonini kuchaytirishda raqamli asboblardan va dasturlashni qo'llashni o'z ichiga olgan texnologiyalardir. Raqamli texnologiyalar, talabalarning o'zlashtirish, tushuntirish va o'rganishni osonlashtirish uchun juda katta imkoniyatlarni beradi. Ular interaktiv darsliklar, onlayn o'qish materiallari, interaktiv o'qituvchilar, ma'ruza o'tkazish dasturlari, onlayn testlar va boshqalar kabi usullarni o'z ichiga oladi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi. Yurtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassalari zamon talabidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich onlayn ta'limni yo'lga qo'yimoqda. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani hayratlanarli emas, chunki, bu jarayon bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab xizmatlarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi

yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha birorbir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [2]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, soha vakillari va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda innovatsiyalar ko'pgina sohalar kabi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelayapti. Ta'limda yangi texnologiyalardan foydalanish zaruriy omil hisoblanadi. Axborot makonining kengayib borgani sari ularni qabul qilish imkoniyati ham oshib borayapti. Ta'lim muassalarida dars jarayonini tashkil qilishda vaqt muhim ahamiyatga ega [3]. Raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan oliy ta'lim muassasalarining barcha shakllarida keng qo'llanilmoqda. Masalan, Zamonaviy ta'lim sohasi ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim kabi bir necha shakllarini taklif etadi. Masofadan turib o'qitish talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o'quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o'zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin [4]. Ushbu texnologiyalar, talabalarning hamkorlik, tahlil qilish, dastur yaratish va ma'lumotni ta'limda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'zlashtirish va ko'proq ish qilish imkoniyatlarini yaratadi. Misol uchun, online o'quv platformalari va darsliklar, talabalarga dunyoning har qanday joyda o'qish imkoniyatini va shaxsiy monitoring va qulayliklar beradi. Raqamli ta'lim tizimlari, onlayn forumlar, video konferensiyalar va chatlar yordamida talabalar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni mustahkamlashga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar, ta'limning individual o'zlashtirishini ham ta'minlashga yordam beradi. Talabalar shaxsiy tajribalardan foydalangan holda o'zlashtirishlarini osonlashtirish uchun dasturiy ta'minotlar, virtual laboratoriyalar va simulatorlardan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, u holda talabalarni o'zlashtirish, tanqid qilish va jismoniy ijobiy bilimlarni joriy etishni ta'minlash uchun interaktiv dasturlar va o'yinlar yaratish mumkin. Bundan tashqari, raqamli

texnologiyalar, ta'lim tashkilotlariga ma'lumot analitikasi va ta'limning sifatini baholash imkonini beradi. Ma'lumotlar analitikasi, o'quv jarayonini tahlil qilish va talabalarning natijalarini baholashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar, talabalarning faoliyati, muvaffaqiyati va qabul qilingan bilimlari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa ta'lim tashkilotlari uchun rivojlanish strategiyasini belgilash, o'quv dasturini o'zgartirish va talabalarni o'rganish jarayonida yaxshi natijalar olishga yordam beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarishning qulay va hamyonbop usuli sifatida ham raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. Barcha ta'lim jarayoni ma'lumotlarini elektron shaklda saqlash, ro'yxatlarni va baholarini boshqarish, yagona platforma orqali o'qituvchilar, talabalar va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiyani tashkil etish, dars jadvalini yaratish va boshqarish kabi jarayonlar avtomatlashtirilgan. Bu talabalar, o'qituvchilar va tashkilot rahbarlariga ish faoliyatlarini nazorat qilish va optimallashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va ularni elektron ta'lim tizimi tashkil qilish jarayonida qo'llash bo'yicha takliflar:

Onlayn ta'lim platformalari va onlayn kurslar: Bu platformalar orqali talabalar, istalgan vaqtda va istalgan joyda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interaktiv darsliklar: Bu darsliklar animatsiya, videolar, savollar va javoblar kabi interaktiv elementlarga ega bo'lib, talabalar o'rganish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar: Ushbu texnologiyalar talabalarning laboratoriyalarda tajribalar o'tkazishni simulatsiyalash, shuningdek, ularga turli amaliy mashg'ulotlar va tajribalar o'tkazish imkonini beradi.

Massiv onlayn ochiq darslar (MOOC): Bu dasturlar orqali dunyodagi eng yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan kurslarga bepul ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Dasturiy ta'minotlar va ilovalar: Bu dasturlar talabalar uchun ta'lim materiallarini, kitoblarini, ma'ruzalarini va boshqalarini osonlashtirish, tahlil qilish va o'rganishni ta'minlash uchun yaratilgan.

Online testlar va baholash tizimlari: Bu tizimlar talabalarning bilim darajasini, natijalarini baholash va tahlil qilish imkonini beradi.

Ta'lim analitikasi va ma'lumotlar tahlili: Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar, o'qituvchilar va tashkilotlar faoliyatlarini tahlil qilish, natijalarini baholash va ta'limning sifatini o'rganishga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni takidlab o'tish mumkinki, raqamli texnologiyalar, talabalarning o'zlashtirishni yengillashtiradi va ta'lim muassasalarining faoliyatini yanada samarali qiladi. Bu texnologiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalar va rivojlanishlarni kuchaytirish uchun katta potentsialga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 y.
2. Abdullayev M., Saidahrar, G., & Ayupov, R. //Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. 2020 y.
3. Sadullayev I. Sh. Sirtqi ta'limda talabalarning o'zlashtirish monitoringini olib borish ("Plikers" texnologiyasi misolida).//PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-SON (2020-yil, iyun)
4. Sadullayev I. Sh. Sirtqi ta'lim shaklining o'ziga xos xususiyatlari.//PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2-SON (2023-yil, mart)

STYUDENT TAQSIMOTI VA UNING BA'ZI XOSSALARI

Samatov S

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

e-mail: sultonsamatov2003@gmail.com

Bizga $\xi \sim N(0; 1)$ parametrli Normal taqsimot va $\eta \sim H_n$ ozodlik darajalari soni n bo'lgan Xi-kvadrat taqsimot berilgan bo'lsin.

Ta'rif. Ushbu

$$\mu_n = \frac{\xi}{\sqrt{\frac{\eta}{n}}}$$

taqsimotga ozodlik darajalari soni n bo'lgan *Styudent* taqsimoti deyiladi.

1-tasdiq. μ_n *Styudent* taqsimotining zichlik funksiyasi quyidagiga teng:

$$P_\mu(t, n) = \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{n\pi}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \left(1 + \frac{t^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}}$$

bu yerda, $\Gamma(n) = \int_0^{+\infty} t^{n-1} e^{-t} dt$ 2-tur Eyler integrali (Gamma funksiya)

Isbot. Faraz qilaylik ξ va η lar bog'liqsiz bo'sin. Taqsimot funksiya ta'rifidan

$$\begin{aligned} F_\mu(x) &= P(\mu < x) = P\left(\frac{\xi}{\sqrt{\frac{\eta}{n}}} < x\right) = \iint_{\frac{u}{\sqrt{\frac{v}{n}}} < x} P_{\xi, \eta}(u, v) dudv \\ &= \iint_{\frac{u}{\sqrt{\frac{v}{n}}} < x} P_\xi(u)P_\eta(v) dudv = \int_0^{+\infty} \left(\int_{-\infty}^{x\sqrt{\frac{v}{n}}} P_\xi(u) du \right) P_\eta(v) dv \\ &= \int_0^{+\infty} \left(\sqrt{\frac{v}{n}} \int_{-\infty}^x P_\xi\left(t\sqrt{\frac{v}{n}}\right) dt \right) P_\eta(v) dv \\ &= \int_{-\infty}^x \left(\sqrt{\frac{v}{n}} \int_0^{+\infty} P_\xi\left(t\sqrt{\frac{v}{n}}\right) P_\eta(v) dv \right) dt \end{aligned} \quad (1)$$

(1) munosabatga ega bo'lamiz.

Bunda

$$P_\xi(u) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{u^2}{2}} \quad (2)$$

$$P_{\eta}(v) = \frac{\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{n}{2}}}{\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} v^{\frac{n}{2}-1} e^{-\frac{v}{2}} \quad (3)$$

(2) $N(0; 1)$ parametrli Normal taqsimotning zichlik funksiyasi. (3) H_n ozodlik darajalari soni n bo'lgan Xi-kvadrat taqsimotning zichlik funksiyasi.

(2) va (3) larni yuqorida hosil qilingan (1) munosabatga qo'yamiz va soddalashtiramiz:

$$P_{\mu}(t, n) = \sqrt{\frac{v}{n}} \int_0^{+\infty} P_{\xi}\left(t\sqrt{\frac{v}{n}}\right) P_{\eta}(v) dv = \frac{\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{n}{2}}}{\sqrt{2\pi}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_0^{+\infty} e^{-\left(\frac{t^2v}{2n} + \frac{v}{2}\right)} v^{\frac{n}{2}-1} \sqrt{\frac{v}{n}} dv =$$

$$\left[\begin{array}{l} \frac{t^2v}{2n} + \frac{v}{2} = z \\ v = \frac{z}{\left(\frac{t^2}{2n} + \frac{1}{2}\right)} \\ dv = \frac{dz}{\left(\frac{t^2}{2n} + \frac{1}{2}\right)} \end{array} \right] = \frac{\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{n}{2}}}{\sqrt{2\pi}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right) \sqrt{n}} \int_0^{+\infty} \frac{\left(\frac{z}{\left(\frac{t^2}{2n} + \frac{1}{2}\right)}\right)^{\frac{n}{2}-1+\frac{1}{2}} dz}{\left(\frac{t^2}{2n} + \frac{1}{2}\right)} =$$

$$= \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \left(1 + \frac{t^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}}$$

2-tasdiq. Student taqsimotining matematik kutilmasi nolga teng. Ya'ni $M(\mu) = 0$.

Isbot.

$$M(\mu) = \int_{-\infty}^{+\infty} t \cdot P_{\mu}(t, n) dt = \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_{-\infty}^{+\infty} t \cdot \left(1 + \frac{t^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}} dt = 0$$

Bizga matematik analiz kursidan ma'lumki simmetrik oraliqda toq funksiya integrali nolga teng.

3-tasdiq. Ozodlik darajasi $n > 2$ Student taqsimotining dispersiyasi $D(\mu) = \frac{n}{n-2}$ ga teng.

Isbot. Dispersiya ta'rifidan $M(\mu) = 0$ ekanligini inobatga olib

$$\begin{aligned}
D(\mu) &= M(\mu^2) - (M(\mu))^2 = \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_{-\infty}^{+\infty} t^2 \cdot \left(1 + \frac{t^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}} dt = \\
&= \frac{2\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_0^{+\infty} t \cdot \left(1 + \frac{t^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}} dt = \left[\begin{array}{l} t = \sqrt{xn} \\ dt = \frac{1}{2} \sqrt{\frac{n}{x}} dx \end{array} \right] = \\
&= \frac{2\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_0^{+\infty} \frac{1}{2} \frac{xn}{(1+x)^{\frac{n+1}{2}}} \sqrt{\frac{n}{x}} dx = \frac{2\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \cdot \frac{n\sqrt{n}}{2} \int_0^{+\infty} \frac{x^{\frac{1}{2}}}{(1+x)^{\frac{n+1}{2}}} dx = \\
&= \frac{2\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{\pi n} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \cdot \frac{n\sqrt{n}}{2} \cdot \frac{\frac{1}{2} \sqrt{\pi} \Gamma\left(\frac{n-2}{2}\right)}{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)} = \frac{n}{2} \cdot \frac{\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)}{\frac{n-2}{2} \Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} = \frac{n}{n-2}
\end{aligned}$$

hosil qilamiz.

1-eslatma. Ozodlik darajasi $n = 1$ Styudent taqsimoti Koshi taqsimoti bilan ustma-ust tushadi:

$$P_{\mu}(t, 1) = \frac{1}{\pi} \cdot \frac{1}{1+t^2}$$

Koshi taqsimotining dispersiyasi mavjud emas.

2-eslatma. Ozodlik darajasi $n = 2$ bo'lgan hol uchun Styudent taqsimotining dispersiyasi:

$$D(\mu) = +\infty$$

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Кибзун А. И., Горяинова Е. Р., Наумов А. В., Сиротин А. Н. Теория вероятностей и математическая статистика. Базовый курс с примерами и задачами / Учебн. пособие. — М.: ФИЗМАТЛИТ, 2002. - 224 с.
2. Т.В. Крупкина К 84 Теория вероятностей и случайные процессы: учебное пособие / Т.В. Крупкина, С.В. Бабенышев, А.К. Гречкосеев, Е.С.Кирик. Сибирский федеральный университет. Красноярск: 2007. 149 с

MARKAZIY LIMIT TEOREMASI VA UNING TADBIQLARI

Jovliyev Aziz Ismanqul o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti, Termiz, O'zbekiston

aziz.jovliyev130791@mail.ru

Markaziy limit teorema tasodifiy miqdorlar yig'indisi taqsimoti va uning limiti – normal taqsimot orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar uchun markaziy limit teoremani keltiramiz.

Teorema[1]. X_1, X_2, \dots, X_n bog'liqsiz, bir xil taqsimlangan, $MX_i = a$ chekli matematik kutilma va $DX_i = \sigma^2, i = \overline{1, n}$ dispersiyaga ega bo'lsin, $0 < \sigma^2 < \infty$ u

holda $Z_n = \frac{\sum_{i=1}^n X_i - M\left(\sum_{i=1}^n X_i\right)}{\sqrt{D\left(\sum_{i=1}^n X_i\right)}} = \frac{\sum_{i=1}^n X_i - na}{\sigma\sqrt{n}}$ tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni

$n \rightarrow \infty$ da standart normal taqsimotga intiladi

$$F_{Z_n}(x) = P\{Z_n < x\} \xrightarrow{n \rightarrow \infty} \Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-t^2/2} dt. \quad (1)$$

Demak, (1) ga ko'ra yetarlicha katta n larda $Z_n \square N(0,1)$, $S_n = X_1 + \dots + X_n$ yig'indi esa quyidagi normal qonun bo'yicha taqsimlangan bo'ladi:

$S_n \square N(na, \sqrt{n}\sigma)$. Bu holda $\sum_{i=1}^n X_i$ t.m. asimptotik normal taqsimlangan deyiladi.

Agar X tasodifiy miqdor uchun $MX=0, DX=1$ bo'lsa X t.m. markazlashtirilgan va normallashtirilgan (yoki standart) tasodifiy miqdor deyiladi. (1) formula yordamida yetarlicha katta n larda tasodifiy miqdorlar yig'indisi bilan

bog'liq hodisalar ehtimolligini hisoblash mumkin. $S_n = \sum_{i=1}^n X_i$ tasodifiy miqdorni standartlashtirsak, yetarlicha katta n larda

$$P\left\{\alpha \leq \sum_{i=1}^n X_i \leq \beta\right\} = P\left\{\frac{\alpha - na}{\sigma\sqrt{n}} \leq \frac{\sum_{i=1}^n X_i - na}{\sigma\sqrt{n}} \leq \frac{\beta - na}{\sigma\sqrt{n}}\right\} \approx \Phi\left(\frac{\beta - na}{\sigma\sqrt{n}}\right) - \Phi\left(\frac{\alpha - na}{\sigma\sqrt{n}}\right), \text{ yoki}$$

$$P\{\alpha \leq S_n \leq \beta\} \approx \Phi\left(\frac{\beta - MS_n}{\sqrt{DS_n}}\right) - \Phi\left(\frac{\alpha - MS_n}{\sqrt{DS_n}}\right). \quad (2)$$

1-Misol. X_i bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar $E(2)$ qonun bo'yicha taqsimlangan bo'lsa, $Y = \sum_{i=1}^{100} X_i$ tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini toping va $P\{50 < Y < 60\}$ ehtimollikni hisoblang.

Markaziy limit teorema shartlari bajarilganligi uchun, Y tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi $f_Y(y) \approx \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma_y} e^{-\frac{(y-MY)^2}{2\sigma_y^2}}$ bo'ladi. Ko'rsatkichli

taqsimot matematik kutilmasi va dispersiyasi formulasidan $MX = \frac{1}{2}$, $DX = \frac{1}{4}$

bo'ladi. U holda $MY = M\left(\sum_{i=1}^{100} X_i\right) = \sum_{i=1}^{100} MX_i = 100 \cdot \frac{1}{2} = 50$,

$DY = D\left(\sum_{i=1}^{100} X_i\right) = \sum_{i=1}^{100} DX_i = 100 \cdot \frac{1}{4} = 25$, $\sigma_Y = 5$, shuning uchun, $f_Y(y) \approx \frac{1}{5\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(y-50)^2}{50}}$.

(2) formulaga ko'ra,

$$P\{50 < S_n < 60\} \approx \Phi\left(\frac{60-50}{5}\right) - \Phi\left(\frac{50-50}{5}\right) = \Phi(0,2) - \Phi(0) \approx 0,07926.$$

2-misol. X_i bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar $Ge(0,8)$ geometrik taqsimot bilan taqsimlangan bo'lsa, $Y = \sum_{i=1}^{80} X_i$ tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini toping va $P\{100 < Y < 120\}$ ehtimollikni hisoblang.

Markaziy limit teorema shartlari bajarilganligi uchun, Y tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi $f_Y(y) \approx \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma_y} e^{-\frac{(y-MY)^2}{2\sigma_y^2}}$ bo'ladi. Geometrik taqsimot

matematik kutilmasi va dispersiyasi formulasidan $MX_i = \frac{1}{0,8} = \frac{5}{4}$, $DX_i = \frac{0,2}{0,64} = \frac{5}{16}$

bo'ladi. U holda $MY = M\left(\sum_{i=1}^{80} X_i\right) = \sum_{i=1}^{80} MX_i = 80 \cdot \frac{5}{4} = 100$.

$$DY = D\left(\sum_{i=1}^{80} X_i\right) = \sum_{i=1}^{80} DX_i = 80 \cdot \frac{5}{16} = 25. \quad \sigma_Y = 5, \text{ shuning uchun, } f_Y(y) \approx \frac{1}{5\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(y-100)^2}{50}}$$

(2) formulaga ko‘ra,

$$P\{100 < S_n < 120\} \approx \Phi\left(\frac{120-100}{20\sqrt{5}}\right) - \Phi\left(\frac{100-100}{20\sqrt{5}}\right) = \Phi(0,4472) - \Phi(0) \approx 0.17364.$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov A.A., Zuparov T.M “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” Tafakkur Bustoni. nashriyoti. T.: -2015 y.
2. Rasulov A.S. va b. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” O‘zb.fay.milliy jam. nashriyoti. T.: -2006 y.
3. А.С.Расулов, Г.Раимова «Теория вероятностей и математическая статистика». Учеб.пособие, Т.: Изд.УМЭД,2002г.
4. В.Е.Гмурман «Теория вероятностей и математическая статистика», М.: «Высшая школа», 1977 г.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA “BLENDEND LEARNING”

TEXNOLOGIYASINING ISTIQBOLLARI

Shakadirova Nigora Irgashevna

Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent, O‘zbekiston

shnigora@mail.ru

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, yetuk salohiyatli pedagog kadrlarni tarbiyalash asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalana olishlarini ta’minlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusidan uchinchisi aholining kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalana olishlarini ta’minlashdan iborat. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmonida 2023-yil yakuniga qadar

barcha tuman va shaharlarda o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o'rganishi uchun mavjud ta'lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilab berilgan. Bu esa o'z navbatida salohiyatli informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini yetkazib berish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak Informatika o'qituvchilarini tayyorlashda hozirda turli metodlar, texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Shular qatorida blended learning (aralash ta'lim) texnologiyasini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Blended learning texnologiyasi bo'yicha bir qator olimlar tadqiqot olib borganlar. Simon Krisztianning fikriga ko'ra, blended learning yuzma-yuz, onlayn va mobil muhitlarning uchrashish nuqtasidir. Kengaytirilgan ta'lim texnologiyasini kompyuter yordamida, yuzma-yuz va mobil ta'lim kesishmasida topish mumkin [3].

L.Babaxodjayeveaning fikriga ko'ra, aralash ta'lim – o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili: masofaviy o'qitish (Distance Learning), auditoriyada o'qitish (Face ToFace Learning) va Internet orqali o'qish ((Online Learning)ni axborot va ta'lim texnologiyalari asosida qat'iy dasturlash, vaqt, mazmundan foydalanishdagi cheklovlarsiz notekis ta'lim modelini qo'llash hisoblanadi [2].

E.V.Kostina blended learningni qat'iy rasmiy o'qitish vositalari (auditoriyadagi ish) bilan norasmiy (internet konferensiyalari va elektron ta'lim orqali o'quv materialini muhokama qilish) kombinatsiyasi va aralash ta'lim o'quv materialini taqdim etishning turli usullarini (kunduzgi, elektron va mustaqil) birlashtirishdan iborat deb hisoblaydi [4].

Alijani, Kwun, va Yu Nyu-Orlean, Luiziana shahridagi KIPP (Bilim - bu quvvat dasturi) doirasida aralash ta'lim modellaridan foydalanishning kognitiv jarayonlari, tegishli omillari va afzalliklarini o'rganib chiqdi. Ular to'qqizta maktabda 186 nafar o'qituvchi o'rtasida so'rov o'tkazdi va respondentlarning 48 foizi aralash ta'lim an'anaviy yuzma-yuz o'qitishdan ko'ra samaraliroq ekanligiga

ishonishlarini ko'rsatdi. Bundan tashqari, ular respondentlarning 94 foizi aralash ta'lim maktabning akademik muvaffaqiyatini oshirishiga ishonishlarini aniqladilar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aralash ta'lim modeliga o'tish o'quvchilarga individual sur'atlarda o'rganish imkonini beradi va o'qituvchilarga, kerak bo'lganda individual e'tiborni kuchaytirishga imkon beradi [4].

Blended learning texnologiyasining bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Talaba ham asinxron, ham real vaqt rejimida o'qishi mumkin.
- Talaba o'quv dasturini o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar, taqdimotlar, og'zaki imtihonlar va boshqalarni talab qiladigan fanlarni qamrab olish uchun kengaytirishi mumkin.
- O'qituvchilar real vaqt rejimida, jumladan, og'zaki imtihonlarda talabalarning ish faoliyatini baholashlari mumkin.
- O'qituvchi LMS (learning management system- ta'limni boshqaruv tizimi) orqali muntazam onlayn trening va vebinar mashg'ulotlarini rejalashtirishi, targ'ib qilishi va boshqarishi mumkin.

Bugungi kunda respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida HEMIS tizimidan foydalanilayotgani va bu tizimda fan resurslari fan o'qituvchilari tomonidan joylashtirilishi hamda talabalar istalgan vaqtda va istalgan joyda ushbu resurslardan foydalanishlari ham blended learning texnologiyasining samarasini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan talabalar uchun bu qo'shimcha qulaylik tug'diradi: ular mashg'ulotlar boshlanadigan davrga qadar fan resurslaridan foydalanib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishlari, nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin va mashg'ulotlar davomida mavzularni o'zlashtirishda qiyinchiliklar sezilarli darajada kamayadi.

Blended learning texnologiyasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan elementlarni o'z ichiga qamrab olganligi sababli bu texnologiya yordamida dars olib borish o'quvchi yoki talabani har tomonlama rivojlantiradi. Mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan

foydalanish, o'z ustida ishlashlari uchun ham turtki bo'ladi. Qachonki yoshlarni mustaqil ishlashga o'rgata olsak, ularda fikrni erkin bayon qilish ko'nikmasi shakllanadi, shundagina kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alijani, G. S., Kwun, O., K., & Yu, Y. (2014). Effectiveness of blended learning in KIPP New Orleans' schools. *Academy of Educational Leadership Journal*, 18(2), 125- 141.
2. Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta'lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari: pedagogika fanlari doktori dis.avtoreferat. - Chirchiq: -2021. – 70 b.
3. Simon Krisztián “Blending Is Trending: Applying Blended Learning to Meet EFL Students’ Language Needs in Listening and Speaking Skills Development”, doctoral dissertation, 2016
4. Костина Е.В. Модель смешанного обучения (Blended Learning) и ее использование в преподавании иностранных языков. *Известия вузов.* -2010. Вып. 1 (2). 141–144 с.

EKSPERT TIZIMI BILIMLAR BAZASINI YARATISHDA MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISHNING BA'ZI USULLARI HAQIDA

Shermatov Jahongir Erkul o`g`li., Qodirov Asliddin Asomiddin o`g`li.,

Shukurov Erkin Sodiq o`g`li

jaxongirshermatov94@gmail.com

Hozirgi vaqtda zamonaviy mutaxassisni qollab quvvatlash maqsadida qaror qabul qilishning intellektual axborot tizimlari bilan ta'minlash darajasini oshirishga qaratilgan ko'plab turli xil tizimlar ishlab chiqilgan. Bular yashirin qonunyalarni ochib beruvchi ma'lumotlarni intellektual qidirish tizimlari; kompyuter simulyatsiya tizimlari; muayyan fan sohalarida (MFS) mutaxassislarning bilimlari va qaror qabul qilish tajribasiga asoslangan ekspert tizimlari va taklif qilingan to'plamdan eng yaxshi yechimni tanlashga yordam beradigan boshqa tizimlar [1,2, 3, 4, 7].


Tahlil va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun qiyin bo'lgan iqtisodiy, biologik, tibbiy va boshqa muayyan fan sohalariga xos sust shakllangan ma'lumotlarni ham miqdor, ham sifat jihatidan interpretatsiya, diagnostika va prognozlashni taqdim etish mumkin.

Bundan tashqari, axborotni tahlil qilish va yechimlarni ishlab chiqishdan oldin modelni formallashtirish (asosiy omillarni, ular o'rtasidagi munosabatlarni va ba'zi omillarning boshqalarga ta'sirining kuchini aniqlash) amalga oshirilishi kerak. Sust shakllangan bilim sohalarida bu jarayon mutaxassislar bilan yaqin aloqada bo'lishi kerak va murakkab MFS uchun bunday ishlar kompyuter qo'llab-quvvatlashni amalga oshirilishi kerak.

Ekspert tizimlarining to'liq va izchil bilimlar bazasini yaratish uchun samarali vositalarning yetishmasligi va ushbu muammoli sohada ushbu muammoni hal qiladigan metodologiyani ishlab chiqish zarurati o'rtasida qarama-qarshilik mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish ushbu tadqiqot muammosini belgilaydi, bu murakkab ekspert tizimlarida to'liq va izchil bilimlar bazalarini loyihalashni ta'minlaydi va olingan bilimning sifatini oshiradigan ma'lumotni qayta ishlash metodologiyasini ishlab chiqadi.

Tibbiy va biologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va tuzish uchun turli xil axborot texnologiyalari qo'llaniladi, bu to'plangan bilimni tizimlashtirish va zamonaviy mutaxassis tomonidan formallashtirilgan holda qaror qabul qilishda kompyuter tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan.

So'ngi paytlarda turli tibbiy va biologik muammolarni hal qilishda intellektual axborot tizimlaridan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Bunday intellektual axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish deyarli ko'plab bilim sohalarini rivojlantirishning asosiy omiliga aylanib bormoqda va hozirgi vaqtda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [1, 3, 5, 7].



1-rasm. Ekspert tizimlari arxitekturası

